



---

## ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNI SO'ZLASHUV NUTQINI RIVOJLANTIRISH

Alijonova Iroda

Nizomiy nomidagi TDPU ning surdopedagogika  
yo'nalishi 3-bosqich 304-guruh talabasi

### **Annotatsiya:**

Ushbu maqolada eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning so'zlashuv nutqini rivojlantirish yo'llari, uning ahamiyati va shakllantirish bosqichlari hamda so'zlashuv nutqini rivojlantirishning samarali metod-usullardan foydalanish haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** dialogik nutq,leksik daraja, sintaktik daraja,og'zaki nutq,to'g'ri talaffuz,mashqlar.

### **Аннотация:**

в данной статье говорится о способах развития устной речи детей с нарушением слуха, ее значении и этапах формирования, а также использовании эффективных методов развития устной речи.

**ключевые слова:** диалогическая речь, лексический уровень, синтаксический уровень, устная речь, правильное произношение, упражнения.

### **Annotation:**

this article discusses the ways of developing spoken speech in children with hearing impairments, its importance and stages of formation, as well as the use of effective methods for developing spoken speech.

**Key words:** dialogic speech, lexical level, syntactic level, oral speech, correct pronunciation, exercises.



## International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

7<sup>th</sup> April, 2025

Eshitish qobiliyati cheklangan bolalarning jamiyatga moslashuvi va muloqot qobiliyatini rivojlantirish uchun ularning soʻzlashuv nutqini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bunday bolalar uchun maxsus pedagogik yondashuv va individual metodlar talab qilinadi.

Bola tovushlarni va soʻzlarni eshitish orqali gapirish va tushunishni oʻrganadi. Agar bola eshitish qobiliyatini yoʻqotsa, bu tovushlarni eshita olmaydi va natijada nutq, oʻqish, maktabdagi muvaffaqiyat va ijtimoiy koʻnikmalarda muammolarga duch kelishi mumkin. Nutqni shakllantirish jarayonida oʻquvchilarning talaffuz ustida koʻproq ishlash talab etiladi. Bolaning eshitish qobiliyati yoʻqolishi quyidagilarga olib kelishi mumkin:

- Nutq va til rivojlanishida kechikish
- Maktabda oʻqish qiyinchiliklari
- Oʻzini yomon his qilish
- Doʻst topishda qiyinchiliklar.

Soʻzlashuv nutqini shakllantirish usullari:

1. Eshitish qoldigʻidan foydalanish va eshitish qobiliyatini rivojlantirish.

Eshitish apparatlari va koxlear implantlar yordamida bolalarning tovushlarni farqlash qobiliyati yaxshilanadi. Maxsus eshitish mashqlari (masalan, atrof-muhitdagi tovushlarni ajratish, soʻzlarni tinglab anglash) orqali ularning eshitish qobiliyati rivojlantiriladi.

2. Ogʻzaki nutqni tushunish va artikulyatsiya mashqlari

Ogʻzaki soʻzlarni tushunish uchun dudorech (labdan oʻqish) metodikasi oʻrgatiladi. Artikulyatsion gimnastika (lab, til, yonoq harakatlari uchun mashqlar) orqali toʻgʻri talaffuz shakllantiriladi.

Oyna oldida mashq qilish orqali bolalarga tovush hosil qilish va talaffuzni toʻgʻri shakllantirish oʻrgatiladi.

3. Daktil va ishora tilidan foydalanish

Daktil nutq (barmoqlar bilan harflarni ifodalash) yordamida bolalarga ogʻzaki soʻzlarni tushunish imkoniyati yaratiladi.

Ishora tili ogʻzaki nutq bilan birgalikda qoʻllaniladi va bu bolalarning muloqot jarayonida oʻz fikrlarini ifodalashga yordam beradi.



## International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

7<sup>th</sup> April, 2025

### 4. Ko‘rish va taktil usullarni joriy etish

Vizual materiallar (rasmlar, video lavhalar) yordamida bolalarning so‘z boyligi oshiriladi.

Jismoniy harakatlar va predmetlar bilan ishlash orqali ularning tushunchalari mustahkamlanadi.

### 5. Ijtimoiy muloqot va interfaol metodlar

Bolalar guruhlarda ishlashga o‘rgatiladi va ular bilan suhbatlar tashkil qilinadi.

O‘yinlar, rolli mashqlar va spektakllar orqali ularning nutqiy faolligi oshiriladi.

Barcha so‘zlashuv materiali bolalar tomonidan eshituv-ko‘ruv orqali idrok etishish lozim

So‘zlashuv nutqini shakllantirish metodlari

Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan ishlashda turli pedagogik va lingvistik yondashuvlar qo‘llaniladi. Asosiy metodlar quyidagilar:

#### 1. Vizual va taktil usullar

Lab harakatlarini o‘rganish (dudak o‘qish)

Jismoniy imo-ishoralar yordamida tushuntirish

Taktil aloqalar orqali tovushlarni his qilish

#### 2. Texnik vositalar va zamonaviy texnologiyalar

Eshitish apparatlari va koklear implantlar

Maxsus mobil ilovalar va virtual o‘quv muhitlari

Subtitrlangan audio va video materiallar

#### 3. Logopedik mashg‘ulotlar

Artikulyatsion gimnastika

Nafas olish mashqlari

Sensor-integrativ terapiya

#### 4. O‘yin va teatr elementlaridan foydalanish

Rol o‘ynash mashg‘ulotlari

Dramatik ssenariy asosida so‘zlashuv nutqini rivojlantirish

Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni jamiyatga moslashtirish va ularga samarali ta’lim berish uchun maxsus pedagogik yondashuv zarur. So‘zlashuv nutqini shakllantirish jarayoni eshitish, ko‘rish, artikulyatsiya va daktil usullar bilan qo‘shib olib borilsa, bu bolalar uchun yanada samarali bo‘ladi. Maxsus ta’lim muassasalari



# E CONF SERIES



## International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

7<sup>th</sup> April, 2025

va zamonaviy texnologiyalar yordamida ularning nutqiy rivojlanishida yuqori natijalarga erishish mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Z.N. Mamarajabova “ona tili o‘qitish maxsus metodikasi”-Toshkent, 2019.
2. Fayzieva U.Yu. Nutq o‘stirish. O‘quv qo‘llanma-T: - O‘qituvchi, 2011.
3. Mamarajabova Z.N. Ona tili o‘qitish maxsus metodikasida pedagogik texnologiyalar-Toshkent, 2004.